



O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKILLANISHI

Rahmonova Oyshaxon Oribovna

Qo'qon davlat universiteti Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

99890 587 36 56

raxmonovaoyshaxon27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola o'smirlik davri psixologiyasi, o'smirlik yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, o'smirlarning bilish jarayonlari xususiyatlari, qizlar va o'smir bolalarda kechadigan psixologik o'zgarishlar, ularning rivojlanishiga ta'siri tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Qiziqish, intilish, xarakter, fiziologiya, deviant, o'smir, psixologiya, aqliy faollik, jizzakilik davri, xulq-atvor

Аннотация: В данной научной статье анализируются психология подросткового возраста, социальные условия развития в подростковом возрасте, особенности когнитивных процессов подростков, психологические изменения, происходящие у девочек и подростков, и их влияние на их развитие.

Ключевые слова: Интерес, стремление, характер, физиология, девиантное поведение, подросток, психология, психическая деятельность, половое созревание, поведение

Abstract: This research article analyzes the psychology of adolescence, the social conditions of development during adolescence, the characteristics of adolescent cognitive processes, the psychological changes occurring in girls and adolescents, and their impact on their development.

Keywords: Interest, aspiration, character, physiology, deviant behavior, adolescent, psychology, mental activity, puberty, behavior

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik — bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi.

O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik



hamda psixologik o'zgarishlardir¹. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5—7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5—10 sm o'sadilar. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi.

Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. Ko'krak qafasi ham gavdaning bo'y o'sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o'smirlarning yelkasi, ko'kragi tor bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida kislorod yetishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod yetishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur yetadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smirda ba'zida qon bosimining ortishi ro'y beradi. Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi².

O'smir psixikasi va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari Ijobiy sifatlar, ehtiyojlar va intilishlar har bir yoshda, jumladan, ma'lum darajada yo'ldan ozgan o'smirda ham bo'ladi. O'smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko'pchilik o'smirlar boshqalardan yomonroq bo'lishni xohlamaydilar va o'z muhitida ko'zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar. O'smirlarning hammasi g'ayratli va faoldirlar, biroq, o'zlarining kuch-quvvatlarini qayoqqa yo'naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Binobarin, ularni bevosita natijalari bilan xursand qiladigan xilma-xil foydali va qiziqarli ishlar bilan band qilish kerak. O'smirlar, garchi hamma vaqt ham bunga tayyor emasliklariga qaramay, mustaqillikka intiladilar. Ammo ko'pincha mustaqil ish-harakatlar uchun ularning imkoniyatlari bo'lmaydi³.

O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi.

¹ Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T-2018 322-bet

² Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T-2018 324-bet

³ Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T-2018 333-bet





Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og'zaki va yozma mavjud bo'lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi⁴.

Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi. O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi.

Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi⁵.

O'smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'ladi. Aynan 13—14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig'i keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi. O'smirlik davrida xotiraning barcha turlari o'zining sifat ko'rsatkichlari asosida jadal rivojlanadi. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirish qiyin. O'smirlik yoshida bolalar o'qigan va o'rganganlarini so'zma-so'z yodlashdan voz kechib uning ma'nosiga ko'ra eslab qolishga harakat qiladilar. Ularda faol ravishda mantiqiy xotira rivojlanib boradi. Mexanik xotiraning rivoji esa birmuncha sustlashadi. Bu esa ba'zan salbiy holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

J.Piajening⁶ ta'kidlashicha, «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri — til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajasiga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi.

O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi.

⁴ Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T-2018 335-bet

⁵ Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T-2018 336-bet

⁶ J.Piaje "Intellekt psixologiyasi" asari





O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga yo'llash orqali amalga oshirish mumkin, o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi.

Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez yodlab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch — uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni O'smirning psixologik kamolotini ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish, uning shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish orqali asta-sekin yo'qotish mumkin. Ota-onalarning o'smirlarga shu erkinlikni bermasligi yoki o'smirning shunday deb bilishi natijasida, ular ota-onaga qarshi pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o'smirlarda g'urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta, g'urur me'yori va qoidalari kattalardan o'rganiladi, lekin o'z g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi.⁷

Rivojlanish davridagi eng murakkab davr bu o'smirlik davri hisoblanadi. Chunki bu davrda o'smir endi bola ham emas, katta ham emas. Bu davr bolaning kattalikka o'tishi bilan karakterlanadi. O'smirlik davrida bolada psixologik va fiziologik o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Fikrlarning tez-tez o'zgarishi, kuzatiladi. Shu sababdan atrofdagi insonlar bilan bo'lgan munosabati, ayniqsa ota-ona bilan bo'lgan muomalasida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. O'smir yoshdagi bolalar kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga, ular bilan ko'proq muomalada bo'lishga boshqa paytdan ko'ra ko'proq ehtiyoj sezadilar. Oilaviy muhit o'smirning kelajakda qanday shaxs bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. O'smir yoshdagi bolalarga tashqi muhit, do'stlari bilan o'rnatgan munosabatlari uning tarbiyasida ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining do'st tanlashlarida ahamiyatli bo'lishi lozim.

⁷ Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T-2018 333-bet





Bu esa bolalarning yomon yo'llarga kirib qolishini oldini olingan bo'ladi. O'smirlik davri barcha bolalarning harakterida ko'rinmaydi. Ba'zi bolalarda bu davr yashirin tarzda o'tib ketishi ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Safayev. N. S. "Umumiy psixologiya" T - 2015
 2. O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiya D. Nishonova D.Abdullayeva G.Baykunosova Toshkent 2015
 3. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan
 4. G'oziev E. Umumiy Psixologiya Toshkent - "Universitet" – 2002
 - 5.Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent – 2018
 6. O'g'il bola tarbiyasi qanday bo'lishi kerak Toshkent 2019
 - 7.СОЦИАЛИЗАЦИЯ ПОДРОСТКА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ Магомедалиева А.М.
 - 8.РОЛЬ СЕМЬИ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКАЕ. С. Сапожкова 2024
- Кафедра педагогики, ПГГПУ

INTERNET SAYTLARI

WWW.ziyonet.uz

WWW.Google.uz

WWW.Ref.uz

WWW.Edu.uz

